



Andijon viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-may)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 13 684,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 105,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (97,6 %) ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 16,2 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda - 10,4 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 10,0 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 20,0 % ga o'sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 57,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini tashkil etdi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning shu davriga nisbatan neft qazib olish - 82,9 % ga pasaygan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan tabiiy gaz qazib olish – 3,4 martaga hamda gaz kondensati qazib olish esa – 4,9 martaga oshgan.




Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-may	2020- yil yanvar-may	Farqi +/-
Neft, ming t.	25,5	4,4	-21,1
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	18,9	64,3	45,4
Gaz kondensati, ming t.	0,1	0,6	0,5



Ishlab chiqaradigan sanoat

2020- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13 360,9 mlrd. So'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,6 % ini tashkil etdi.





Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 226,6 ming litr uzum vinosi (2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 5,7 % ga kamaygan), 25.5 ming tonna, kalava ip (81,0 %), 68,2 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (24,1 %), 355,5 ming. litr aroq mahsulotlari (20,3 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-may	2020- yil yanvar-may	Farqi +/-
Yengil avtomobillar, dona	76905	93005	16100
Avtomobil bamperlari, dona	1004401	1296544	292143
Avtomobil diskalari, tonna	2288	2889	601
Avtomobil o'rindiqlari, komplekt	555344	792602	237258
Xo'jalik sovuni 60 li, tonna	996	590	-406
Iste'mol spirti, ming. litr	4703	5399	696




O'zbekiston Respublikasida yengil avtomobillar ishlab chiqarish sanoati (dona)




«Cobalt»



«Nexia T-250»




«Gentra»



«Spark»



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 227,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (1,7 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 20,0 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-may	2020- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektr energiya, mln.kVt/s	140,8	105,1	-35,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	15,4	20,5	5,1



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 37,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-may	2020- yil yanvar-may	Farqi +/-
Qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	7,1	8,1	1,0
Suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	17,5	18,7	1,2

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish 7,1 % ga, hamda xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 14,7 % ga oshganlik kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 10314,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 7,9 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 75,4 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yil yanvar-may oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi 90,6 % dan 91,2 % gacha oshganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,1 % (2019- yil yanvar-may oylarida ham 0,1 %)ni tashkil etgan edi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumaniga to'g'ri kelib, 78,8 % ni, shuningdek, Andijon shahri 4,7 % ni, Xo'jaobod tumani 1,9 % ni, Oltinko'l tumani 1,7 % ni hamda Shahrixon tumani 1,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyatni o'sish sur'ati (107,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Marhamat (142,2 %), Oltinko'l (121,3 %), Qo'rg'ontepa (112,3 %), Izboskan (110,2 %) hamda Asaka tumanlarida (109,7%) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-may oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
Andijon viloyat bo'yicha:	10314,6	100,0	107,9
Andijon shahar	482,1	4,7	98,6
Xonobod shahar	53,4	0,5	102,4
tumanlar:			
Andijon	162,4	1,6	92,7
Asaka	8127,2	78,8	109,7
Baliqchi	92,0	0,9	97,1
Buloqbo'shi	116,6	1,1	99,4
Bo'ston	80,3	0,8	111,4
Jalaquduq	118,5	1,1	90,3
Izboskan	97,0	0,9	110,2
Ulug'nor	58,6	0,6	98,5
Marhamat	150,5	1,5	142,2
Oltinko'l	178,4	1,7	121,3
Pahtaobod	97,9	0,9	96,7
Xo'jaobod	192,3	1,9	101,1
Shahrixon	169,2	1,6	83,7
Qo'rg'on-tepa	138,1	1,3	112,3



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2261,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Horijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 16,5 % ni tashkil etdi.



Hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

	2020- yil yanvar-may mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Andijon viloyat bo'yicha:	13684,0	105,7
Andijon shahar	2157,1	109,4
Xonobod shahar	502,9	116,2
tumanlar:		
Andijon	335,7	94,3
Asaka	8336,3	108,6
Baliqchi	227,9	101,4
Buloqbooshi	124,1	95,1
Bo'ston	126,2	104,4
Jalaquduq	197,3	107,6
Izboskan	252,2	86,7


	2020- yil yanvar-may mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Ulug'nor	100,3	98,4
Marhamat	158,7	113,6
Oltinko'l	246,0	130,2
Pahtaobod	156,8	101,5
Xo'jaobod	216,6	107,3
Shahrixon	249,2	87,8
Qo'rg'ontepa	296,7	254,0

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida, viloyatda 2020-yilning yanvar-may oylarida jami 13684,0 mlrd. so'mga teng sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Shahar va tumanlar kesimida yuqori hajm Asaka tumanida 8336,3 mlrd. so'mni, Andijon shahrida 2157,1 mlrd. so'mni, Xonobod shahrida 502,9 mlrd. so'mni, Andijon tumanida esa 335,7 mlrd. so'mni tashkil etdi


	Hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da
---	--

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishiga, Izboskan (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan 86,7%), Shahrixon (87,8 %), Andijon (94,3 %), Bulqoboshi (95,1 %), Ulug'nor (98,4 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksi pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.

**Sanoat ishlab chiqarish
fizik hajmi indeksi, % da**




**Iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarishda o'sish sur'ati, % da**



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Marhamat (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan 142,2 %), Oltinko'l (121,3 %), Qo'rg'ontepa (112,3 %), Bo'ston (111,4 %), Izboskan (110,2%), Asaka (109,7%), Xo'jaobod tumanlarida (101,1%), Honobod shahrida(102,4 %), sezilarli darajada oshdi.



Andijon viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Asaka tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 60,9 %), Andijon shahar (15,8 %), Honobod shahar (3,7 %), Andijon (2,5 %), hamda Qo'rg'ontepa (2,2 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Ulug'nor (0,7 %) tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka tumanida (25 540,3 ming so'm), Xonobod shahrida (11 804,8 ming so'm), Andijon shahrida (4 872,7 ming so'm), o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (4 366,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 3 291,5 ming so'm bo'lgan holda, Asaka tumanida – 24 899,6 ming so'mni, Xo'jaobod tumanida – 1 752,7 ming so'mni, Xonobod shahar – 1 253,9 ming so'mni, Bo'ston tumanida 1 117,9 ming so'mni, Andijon shahrida 1 089,1 ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
(2020- yil yanvar-may oylarida, ming so'm)

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
Andijon viloyat:	4366,7	3291,5
Andijon sh	4872,7	1089,1
Xonobod sh	11804,8	1253,9
tumanlar:		
Andijon	1279,3	619,0
Asaka	25540,3	24899,6
Baliqchi	1141,4	460,5
Buloqboshi	873,1	820,9
Bo'ston	1757,6	1117,9
Jalaquduq	1066,2	640,3
Izboskan	1064,5	409,5
Ulug'nor	1688,1	987,0
Marhamat	920,5	873,1
Oltinko'l	1389,7	1008,1
Pahtaobod	816,1	509,6
Xo'jaobod	1974,9	1752,7
Shahrixon	835,7	567,3
Qo'rg'ontepa	1378,7	641,9



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2020- yil yanvar-may oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2320,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 17,0 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Izboskan tumanida (90,4 %), Shahrixon (80,5 %), Xo'jaobod (73,2 %), Pahtaobod (67,1 %), Jalaquduq (66,0 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Asaka (1,8 %), Honobod sh (13,1 %), Andijon sh (19,1 %), hamda Qo'rg'ontepa tumanida (28,6 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra)


Bugungi kunda viloyatda 7356 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2785 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 37,8 %) Andijon shahriga, 812 tasi (11,0 %) Asaka tumaniga , 579 tasi (7,8 %) Andijon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda.		Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda.
14	Ulug'nor	68
23	Honobod sh	135
49	Pahtaobod	169
71	Bo'ston	153
39	Buloqboshi	198
45	Baliqchi	218
39	Marhamat	207
69	Jalaquduq	240
49	Izboskan	246
71	Qo'rg'ontepa	297
64	Oltinko'l	320
50	Xo'jaobod	377
81	Shahrixon	552
64	Andijon	579
95	Asaka	812
360	Andijon sh	2 785

2020- yil yanvar-may oyida viloyatda 1183 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 360 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 30,4 %) Andijon shahrida, 95 tasi (8,0 %) Asaka tumanida, 81 tasi (6,8 %) Shahrixon tumanida, 71 tasi (6,0 %) Qo'rg'ontepa tumanida, 71 tasi (6,0 %) Bo'ston tumanida hamda 69 tasi (5,8 %) Jalaquduq tumaniga to'g'ri keldi.

Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari
(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra)

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligida Andijon shahrida (2 785 ta), Asaka (812 ta), Andijon (579 ta), Shahrixon (552 ta), Xo'jaobod (377 ta), Oltinko'l (320 ta), Qo'rg'ontepa (297 ta) va Izboskan tumanlarida (246 ta) qayd etildi.



2020- yilning 1- may holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligiga esa Jalaquduq (240 ta), Baliqchi (218ta), Marhamat (207 ta), Buloqboshi (198 ta), Pahtaobod (169 ta), Bo'ston (153 ta), Ulug'nor tumanlarida (68 ta) hamda Xonobod shahrida (135 ta) qayd etildi.

**Sanoat statistikasi
bo'limi**

Tel.: (74) 228-30-42